



**МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ СТОМАТОЛОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**V МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ  
«СОВРЕМЕННЫЕ ДОСТИЖЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ  
ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ»**

**ВСЕМИРНЫЙ ДЕНЬ ЗДОРОВЬЯ**



**ТАШКЕНТ**

*Доктор медицинских наук, Хайдаров Н.К. (отв. редактор)*

*Доктор медицинских наук, профессор Ризаев Ж.А. (отв. редактор)*

*Доктор медицинских наук, профессор Рустамова Х.Е. (зам. отв. редактора)*

*Редакционная коллегия: Шомуродов К.Э., Нурмаматова К.Ч.,  
Машарипова Р.Ю., Камиллов А.А.*

*Данный сборник состоит из материалов международной научно-практической конференции «Современные достижения и перспективы развития охраны здоровья населения» состоявшейся 7 апреля 2022 г. в г.Ташкенте. Представленные в сборнике работы содержат материалы по актуальным вопросам здравоохранения, охраны здоровья населения. Представляет интерес для научных сотрудников и практических врачей всех областей, а также студентов бакалавриата и магистратуры высших медицинских учебных заведений. В сборнике представлены информации о состоянии здоровья разных стран, таких как Российская Федерация, Казахстан и другие.*

УДК: 614.2:61-084

ББК: 51.1л0я43

С-56

А-95

## **СОДЕРЖАНИЕ**

### *Общественное здоровье и управление здравоохранением*

<b>ПУТИ УЧАСТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ СООБЩЕСТВ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПОСТДИПЛОМНОГО МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН</b>	
<i>Асадов Д.А., Хакимов В.А.</i>	3
<b>ВОЗМОЖНЫЕ ПУТИ ТРАНСФОРМАЦИИ НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ</b>	
<i>Асадов Д.А., Хакимов В.А.</i>	4
<b>ASSESSMENT OF THE QUALITY OF MEDICAL CARE FOR PREGNANT WOMEN AT THE PHC LEVEL</b>	
<i>Abdirambay D.</i>	10
<b>ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI NAZARIYASI VA AMALIYOTI</b>	
<i>Abdukadirova B.Y.</i>	11
<b>ИНФОРМАТИКА В МЕДИЦИНЕ</b>	
<i>Абдукадирова Б.Ю.</i>	12
<b>BOLALAR VA O'SMIRLAR SALOMATLIK XOLATIGA EKOLOGO- GIGIYENIK OMILLAR TA'SIRINI O'RGANISH</b>	
<i>Abdukadirova L.K., Erkinov Sh.E., Aytmuratova G.A.</i>	14
<b>IMPACT OF LACK OF SLEEP ON HUMAN HEALTH</b>	
<i>Abidova M.I., Khasanova M.I.</i>	15
<b>ШКОЛЫ ХОБЛ В ВЕЛИКОБРИТАНИИ И ГЕРМАНИИ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)</b>	
<i>Аимбетова Г.Е., Рамазанова М.А., Турсынбекова А.Е., Жамирова Р.Н., Серикбаева А.К., Кабдылдаева Г.К.</i>	17
<b>ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ПОКАЗАТЕЛЯ СРЕДНЕЙ ОЖИДАЕМОЙ ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТИ ЖИЗНИ С ДРЕВНИХ ВРЕМЁН ДО НАШИХ ДНЕЙ</b>	
<i>Ахметов А.И., Глушаков А.И.</i>	26
<b>EPIDEMIOLOGICAL FEATURES OF ACUTE INTESTINAL INFECTIONS IN THE REPUBLIC OF KAZAKHSTAN</b>	
<i>Baikonsova L.O., Suyundikova E.M., Bekzhanova M.U.</i>	34
<b>ПРЕВЕНТИВНАЯ МЕДИЦИНА В ДЕТСКОЙ СТОМАТОЛОГИИ КАК ВАЖНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ АСПЕКТ.</b>	
<i>Бахтиёрова Н.К., Рузиева С.Ю.</i>	36
<b>РОЛЬ МЕДИЦИНСКОЙ СЕСТРЫ В РЕАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПЦИИ БЕРЕЖЛИВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПОЛИКЛИНИКЕ КРУПНОЙ МНОГОПРОФИЛЬНОЙ БОЛЬНИЦЫ</b>	

## **BOLALAR VA O'SMIRLAR SALOMATLIK HOLATIGA EKOLOGO- GIGIYENIK OMILLAR TA'SIRINI O'RGANISH**

*Abdukadirova L.K., Erkinov Sh.E., Aytmuratova G.A.*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi*

**Tadqiqot ishining dolzarbligi:** Atrof-muhitning ifloslanishi va uning bolalar hamda o'smirlar salomatligiga salbiy ta'siri Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (keyingi o'rinlarda - JSST) dunyo bo'ylab olib boradigan siyosatida muhim rol o'ynovchi dolzarb masalalar qatoridan joy olgan [1].

Aholi salomatligiga turli xil atrof muhit omillari ta'sir qiladi, asosiysi irsiyat va ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, kimyoviy va fizik omillar. Bu omillar inson organizmiga va aholi guruhlariga alohida va birgalikda kompleks salbiy ta'sir etadi va turli etiologiyali kasalliklar kelib chiqishiga sababchi bo'ladi [2]. Misol uchun keltirish mumkinki birgina havoning ifloslanishi har yili dunyo bo'ylab taxminan etti million insonning o'limiga sabab bo'lmoqda. JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining asosiy qismi ayni paytda havosi JSST ko'rsatmasida (WHO Guidelines) tavsiya etilgan me'yordan ortiq ifloslangan hududlarda istiqomat qilishmoqda. Yunisef (Unicef) tashkiloti rasmiy axborotiga ko'ra so'nggi yigirma yil ichida dunyo bolalar va o'smirlarning salomatligi va farovonligini yaxshilashda ulkan yutuqlarga erishdi. Ammo qiyinchiliklar davom etmoqda. Ekologik vaziyat yomonlashib borishi ular salomatligiga turli xavflarni duchor qilmoqda [3].

Dunyo bo'ylab aholining kasallanish darajasiga tashqi muhit ifloslanishining ta'sirini gigiyenik baholash, qator kasalliklarni oldini olishga qaratilgan tadbirlarning yuqori samaradorligiga erishish maqsadida qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan Respublikamizda oxirgi to'rt yillikda bu masalaga e'tibor hukumat darajasida qaralmoqda va salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Barchaga ma'lumki Amudaryo va Sirdaryo suvlarining Orol dengiziga quyilishi keskin kamayishi va Orol dengizining qurishi tufayli Orolbo'yi hududidagi ekologik muvozanat izdan chiqdi va oqibatda yondosh hududlarda yashash uchun xavfli

ekologik omillar paydo bo'la boshladi. Orol dengizi havzasida inson salomatligiga muayyan xavf soluvchi o'ta xavfli ijtimoiy-iqtisodiy va sanitariya-epidemiologik vaziyat yuzaga keldi. Mavzuga doir bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari o'rganilganda Qoraqalpog'iston Respublikasi atrof muhit omillarini aholi salomatligiga ta'siri (D.O. Ataxanova, 2018y), Orol bo'yi aholisining xo'jalik-ichimlik suvi bilan ta'minlanishini rivojlantirish va kerakli chora-tadbirlar ishlab chiqish (O.P.Mirshina, 1996y), Orolbo'yining maxsus sharoitlarida (Xiva tumani misolida) xo'jalik-ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash (M. Niyazmatova, 2002y), Insonlar ta'siri ya'ni antropagen faoliyatning yer usti suviga zararli ta'siri (I.A.Usmonov, 2002y), Nukus tumani atmosfera havosi changlanganligini aholi salomatligiga ta'siri (A. Berdiyarov, 2020y), Taxtako'pir tumani atmosfera havosini ifloslanganligini yuqori nafas yo'llariga ta'sirini o'rganish va aholi kasallanish ko'rsatgichlariga ta'sirini baholash (G. Orinbetova, 2021y) kabi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilganligi ma'lum bo'ldi[4].

Yuqorida keltirilgan tadqiqot ishlaridan tashqari Hukumatimiz tomonidan turli chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va hozirgi kundaham eng muhim masalalar qatoridan o'rin olib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18-yanvardagi "2017-2021-yillarda orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida" PQ-2731 sonli qaror ijrosi bo'yicha samarali ishlar amalga oshirildi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-oktyabrdagi №3975-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orolbuyi xalqaro innovatsiya markazi tashkil qilindi. Bularadan tashqari Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24-dekabrdagi "Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda "yashil qoplamalar" — himoya o'rmonzorlari barpo etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarorlar kabi muhim davlat dasturlarini misol sifatida keltirish mumkin[5].

Yuqoridagi o'rganishlar natijalaridan xulosa qilish mumkinki, Qoraqalpog'iston Respublikasi atrof muhitini turli zararli omillar bilan ifloslanishi, aholi salomatligiga shu jumladan bolalar va o'smirlar organizmining o'sish va rivojlanishiga salbiy ta'sirlarini o'rganish va ekologo-gigiyenik baholash muhim va dolzarb masalalardan biri sanaladi.

#### **Adabiyotlar**

1. Belyakov, V.A. Vliyanie zagryaznennogo atmosfernogo vozduxa na fizicheskoe razvitie detey / V.A. Belyakov, A.B. Vasilev // Gigiena i sanitariya. - 2003, №4.-S. 33-34.
2. O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2016 yildagi faoliyati yuzasidan xisobot. // Ekologicheskiy vestnik Uzbekistana №3 (191)2017 // 6-9 str.
3. Dautov F.F. Vliyanie zagryazneniy atmosfernogo vozduxa na allergicheskuyu zaboлеваemost detey v krupnom promyshlennom gorode / F.F. Dautov, R.F. Xakimova, N.Z. Yusupova // Gigiena i sanitariya. 2007. - № 2. -S. 10-12.

4. Iskandarova G.T. К вопросу безопасности человека и окружающей среды // О'zbekiston respublikasi gigienistlari, sanitariya vrachlari, epidemiologlari va infeksionistlarining VIII-se'ezd materiallari to'plami. Toshkent 2005 yil 12-bet.

Iskandarova Sh.T. Современные медико-гигиенические подходы к решению проблем охраны окружающей среды и здоровья населения в Республике Узбекистан Toshkent 1999 Avtoreferat